

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ERGASHEV JASURBEK ABDURAUBOVICH**

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH SINFLARDA  
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHNING  
DASTURIY TA‘MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Ergashev Jasurbek Abduraubovich**

Raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish.....3

**Эргашев Жасурбек Абдураубович**

Совершенствование программного обеспечения обучения предмета информационные технологии в начальных классах в условиях цифровизации.....22

**Ergashev Jasurbek Abduraubovich**

Improvement of software for teaching the discipline information technologies in primary schools in the context of digitalization.....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....47**

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ERGASHEV JASURBEK ABDURAUBOVICH**

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH SINFLARDA  
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHNING  
DASTURIY TA‘MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5265 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertasiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abduvaliyeva Dilsora Nodirjon qizi**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Karlibayeva Guljaxon Ermekbayevna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Abdullayev Botir Baxtiyorovich**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat universiteti**

Dissertasiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_kun soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertasiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro‘yhatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-76-51.

Dissertasiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-raqamli reestr bayonnomasi).

**Z.N.Mamarajabova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
p.f.d., professor

**R.G.Isyanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi,  
p.f.n., dotsent

**M.E.Mamarajabov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi,  
p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan raqamlashtirilgan sifatli ta'lim olishning pedagogik, texnik, dasturiy imkoniyatlari ta'lim jarayonlariga tatbiq etilmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayonining zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashuvini takomillashtirish, ta'lim sifat va samaradorligi oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, axborot texnologiyalari fanini o'qitishni zamonaviy ta'lim tamoyillariga muvofiq tarzda tashkil etish, mos dasturiy ta'minotni yaratishga qaratilgan amaliy loyihalarni tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining ilmiy-nazariy va metodik asoslarini takomillashtirish, dasturiy ta'minotini yaratish, o'qitish texnologiyalari va modellarini samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ma'lumotlar bazasi va katta hajmli ma'lumotlarni yaratish, o'quv jarayonlarini boshqaruvchi axborot tizimlari, AKTning rivojlanish darajasi iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini aks etuvchi muhim ko'rsatkichlarga yaxlitlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ham olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda barcha pedagogika oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishda, uning dasturiy ta'minotini takomillashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari va moddiy-texnik bazasi yaratilmoqda<sup>1</sup>. "Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish" ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishni rivojlantiruvchi dasturiy ta'minot yaratish va foydalanishning pedagogik imkoniyatlarni kengaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 – yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079 son "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son "2022-2023 – yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlari va ularning ijrosi bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "Xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish va ta'lim sifatini baholash asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyati sifat va samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Farmonida

g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini M.M.Aripov, A.A.Abduqodirov, B.S.Abdullayeva, M.X.Allamberganova, U.SH.Begimqulov, F.M.Zakirova, M.H.Lutfillaev, M.M.Mamarajabov, M.Ergashovlar; elektron adabiyotlar, multimedia texnologiyalari vositasida, dasturiy qobiqlarni yaratish, ta'lim jarayonida qo'llashni R.H.Ayupov, G.R.Akramova, D.N.Mamatov, N.I.Taylaqov, A.F.Xayitov, N.Qayumovalar ilmiy-tadqiqot ishlarida olib borishgan.

Mustaqil hamdo'stlik mamlakatlarida ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning didaktik va uslubiy jihatlari S.A.Beshenkov, A.I.Bochkin, V.P.Bespalko, V.I.Bogolyubov, I.V.Robert, I.G.Zaxarovalar; fanlarning metodik ta'minotini ishlab chiqish, takomillashtirish, elektron ta'lim resurslari, masofali ta'lim kurslarini yaratish va ular yordamida ta'lim jarayonini tashkil etish T.N.Brusnetsova, E.I.Mashbits; axborot texnologiyalarini o'rganishda baholash samaradorligidan foydalanish I.B.Gotskaya, D.S.Rychen, A.B.Solovov, A.V.Xutorskoylar tomonidan tatbiq etilgan.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini vositasida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlanishini B.Skinner, N.Krouder, F.Oduen, B.Pont, D.Nushe va X.Murman, F.Altinay, G.Dagli, Z.Altinay, F.Petersson, A.O.Pelegrinlar ilmiy tadqiqotlarida olib borishgan.

**Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universitetida ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

**Tadqiqot maqsadi** raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning dasturiy ta'minotini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

oliy ta'lim muassasasi talabalariga boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishda dasturiy ta'minotini joriy etish modelini takomillashtirish;

dasturiy ta'minot vositasida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish;

dasturiy ta'minoti vositasida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitish samaradorligini aniqlashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish jarayoni bo'lib, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Termiz davlat universiteti,

Fargʻona davlat universitetlaridan 298 nafar talabalari ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** raqamlashtirish sharoitida boshlangʻich sinflarda axborot texnologiyalari fanini oʻqitishni dasturiy taʼminotini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, ilgʻor tajribalarni oʻrganish, suhbat, savol javob, anketa, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, monitoring, umumlashtirish, matematik statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

raqamlashtirish sharoitida boshlangʻich sinflarda axborot texnologiyalari fanini oʻqitishning didaktik imkoniyatlari raqamli muhitni kasbiy bilimlar bilan integratsiyalash hamda dasturiy taʼminotni loyihalash talablarini mezon va kasbiy faoliyat muhitiga yaxlitligini taʼminlash asosida aniqlashtirilgan;

raqamlashtirish sharoitida boshlangʻich sinflarda axborot texnologiyalari fanini oʻqitishning dasturiy taʼminotini joriy etish modeli raqamli taʼlim platformalarining funksiyalarini oʻzini oʻzi rivojlantirishning individual taʼlim traektoriyasiga bosqichma bosqich moslashish hamda differensial yondashuvlar va tamoyillarga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

talabalarining raqamlashtirish sharoitida boshlangʻich sinflarda axborot texnologiyalari fanini oʻqitish metodikasi dasturiy taʼminoti vositasida individual yondoshuvini loyihalashtirishning tabaqalashtirilgan umumiy-sohaviy, autentik, differensial integratsiyalashgan ijodiy bosqichlarini “Case-study”, “SMART”, “SWOT”, “Insert” metodlarini qoʻllash hamda taʼlimning metodik tizimiga oʻzaro moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

dasturiy taʼminot vositasida boshlangʻich sinflarda axborot texnologiyalari fanini oʻqitish samaradorligi ADDIE modelini blum taksonomiyasiga uygʻunlashtirish hamda motivasion, kognitiv, integrativ va kreativ mezonlarini baholash darajalariga muvofiqligini taʼminlash asosida takomillashgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

raqamlashtirish sharoitida boshlangʻich sinflarda axborot texnologiyalari fanini oʻqitishni dasturiy taʼminotini takomillashtirish, jarayonning modeli, ushbu jarayonga oid yangi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va amaliy metodik tavsiyalari ishlab chiqilgan;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida raqamlashtirish sharoitida boshlangʻich sinflarda axborot texnologiyalari fanini oʻqitishning yangi imkoniyatlarini taʼlimga joriy etish va takomillashtirilgan mazmunini oʻz ichiga olgan “Boshlangʻich sinflarda axborot texnologiyalari” oʻquv qoʻllanmasi nashr etilgan (Namangan davlat universiteti Kengashining 2024-yil 30-maydagi 14-sonli bayoniga asosan 30122265-raqamli nashr ruhsatnoma);

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qoʻllanilgan yondashuv, usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy maʼlumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining

ilmiy ahamiyati ta'lim muassasalari boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishni dasturiy ta'minotini takomillashtirish, amaliyotga tatbiq etishning didaktik imkoniyatlarini, shart sharoitlarini aniqlash hamda undan foydalanish metodikasi imkoniyatlarini kengaytirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini amaliy-metodik tavsiyalar va dastur, darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishda, tayyorlangan dars ishlanmalari, mashqlari, test topshiriqlari va lug'atidan ta'lim amaliyotida talabalarning bilish va tushunish darajasini baholashda samarali foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishni dasturiy ta'minotini takomillashtirishda bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari:

raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari raqamli muhitni kasbiy bilimlar bilan integratsiyalash hamda dasturiy ta'minotni loyihalash talablarini mezon va kasbiy faoliyat muhitiga yaxlitligini ta'minlash asosida aniqlashtirishga oid takliflar "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 8-maydagi 11-05-2976/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash imkoni yaratilgan;

raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning dasturiy ta'minotini joriy etish modeli raqamli ta'lim platformalarining funksiyalarini o'zini o'zi rivojlantirishning individual ta'lim traektoriyasiga bosqichma bosqich moslashish hamda differensial yondashuvlar va tamoyillarga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 8-maydagi 11-05-2976/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning dasturiy ta'minotini joriy etish modelidan foydalanish darajasi oshirilishiga erishilgan;

talabalarning raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitish metodikasi dasturiy ta'minoti vositasida individual yondoshuvini loyihalashtirishning tabaqalashtirilgan umumiy-sohaviy, autentik, differensial integratsiyalashgan ijodiy bosqichlarini "Case-study", "SMART", "SWOT", "Insert" metodlarini qo'llash hamda ta'limning metodik tizimiga o'zaro moslashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 8-maydagi 11-05-2976/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarni ta'limning metodik tizimiga o'zaro moslashish imkoniyatlari oshgan;

dasturiy ta'minot vositasida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitish samaradorligi ADDIE modelini blum taksonomiyasiga uyg'unlashtirish hamda motivasion, kognitiv, integrativ va kreativ mezonlarini baholash darajalariga muvofiqligini ta'minlash asosida aniqlashtirish bo'yicha takliflar "Boshlang'ich

sinflarda axborot texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 8-maydagi 11-05-2976/04 raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada talabalarni boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning dasturiy ta‘minot vositasida rivojlantirish samaradorligi oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 11 nomdagi ilmiy ish, shulardan O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnallarda 6 ta ilmiy maqola, ulardan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertasiya hajmi 143 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning bugungi kundagi holati, raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning nazariy asoslari, raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining dasturiy ta‘minoti va unga qo‘yiladigan talablar ilmiy-metodik nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Pedagogika oliy ta‘lim muassasalarining boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fani, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kelgusi kasbiy faoliyatlarida axborot texnologiyalaridan samarali va ongli ravishda foydalanishga tayyorlashni ko‘zda tutadi, shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kelgusi kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha AT kompetentsiyasini rivojlantirish; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda axborot texnologiyalaridan foydalanganda o‘qitishning innovatsion usullarini ishlab chiqish va joriy etishga qodir o‘qituvchilarni tayyorlashni maqsad qiladi.

Axborot texnologiyalari (AT) shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – obyekt, jarayon, hodisa to‘g‘risidagi yangi va sifatli ma‘lumotlarni olish uchun birlamchi ma‘lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish vositalari va usullari majmuidan foydalanadigan jarayon.

Tadqiqotning ahamiyatga molik muhim jihatlari raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning nazariy asoslarini o'rganish va ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish, boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning bugungi kundagi holati, raqamlashtirish sharoitida axborot texnologiyalari fanining o'rni va ahamiyati, ushbu fanni rivojlantirish istiqbollari, raqamli ta'lim tamoyillari va ularni tashkil etuvchilari, omillari hamda interaktiv, shaxsga yo'naltirilganlik, yaxlitligini ta'minlash, raqamli axborot resurslaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashgan iborat. boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning pedagogik imkoniyatlari va tahliiy xulosalar quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

### 1-jadval

#### Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning pedagogik imkoniyatlari

<b>Pedagogik imkoniyatlar</b>	<b>Boshlang'ich sinflarda foydalanishga misollar</b>	<b>Tavsiflar</b>
<b>Motivatsiyani oshirish</b>	Interfaol o'yinlar, o'quv multfilmlari, virtual ekskursiyalar	O'rganishni yanada jozibali va qiziqarli qiladigan interaktiv, multimedia va o'yinli elementlardan foydalanish
<b>Ta'limni shaxsiylashtirish</b>	Moslashuvchan ta'lim platformalari, individual ta'lim traektoriyalari, tabaqalashtirilgan testlar va topshiriqlar	Ta'lim jarayonini har bir talabaninig individual ehtiyoji va imkoniyatlariga moslashtirish, vazifalarning moslashuvchanligi va differentsiatsiyasini ta'minlash
<b>Faol o'qitish</b>	Taqdimotlar, web-saytlar, qo'shma loyihalar, virtual laboratoriyalar yaratish	Talabalarni faol ta'lim olish jarayonlariga jalb qilish, mustaqil tadqiqot, loyiha faoliyatlari va hamkorlikda ishlash uchun uchun sharoit yaratish
<b>Raqamli savodxonlikni rivojlantirish</b>	Matn muharrirlari bilan ishlash, qidiruv tizimlaridan foydalanish, taqdimotlar yaratish, onlayn vositalardan foydalanish	Talabalarda kompyuter, dasturiy ta'minot, Internet va boshqa AT vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish
<b>Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish</b>	Ma'lumotlarni tahlil qilish, muammolarni hal qilish, simulyatsiya va modellar bilan ishlash, multimediali kontentlarni yaratish	Tanqidiy fikrlash, tahliliy ko'nikmalar, mantiqiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish uchun ATdan foydalanish
<b>Ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish va yaxshilash</b>	Masofaviy o'qitish, onlayn resurslar, imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun maxsus dasturiy ta'minot	Joylashuvi, jismoniy qobiliyati va boshqa omillardan qat'i nazar, barcha talabalar uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash
<b>Turli fan sohalarining integratsiyasi</b>	Turli fanlar yuzasidan egallangan bilimlarni birlashtiruvchi multimediali loyihalarni yaratish.	Turli o'quv fanlarni integratsiyalash, fanlararo loyihalar yaratish va ta'lim mazmunini boyitish uchun ATdan foydalanish

Keltirilgan pedagogik imkoniyatlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qutuvchilarini har tomonlama rivojlanishiga imkon beruvchi moslashuvchan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratishga; ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning eng samarali usullari va


yondashuvlarini aniqlash maqsadida tadqiqot ishlari va tahlillar o'tkazishga; raqamli sharoitda innovatsion yondashuvni amalga oshirishga imkon beradi.

Hozirgi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishda axborot (kompyuter) texnologiyalaridan foydalanishning mohiyatini tushunishga bo'lgan ikki asosiy yondashuv ustunlik qiladi: o'rganilayotgan nazariy va amaliy materiallarni illyustratsiya qilish qobiliyatini hisobga olgan holda, ularda axborot tayyorlash mazmunini kengaytirish imkoniyati, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni modellashtirish, tasavvur qilish, taqlid qilish, yechilishi kutilayotgan o'quv, ilmiy va amaliy muammolarni hal qilish qobiliyati tufayli o'rganilayotgan fan sohasini chuqurlashtirish; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirish va oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonlarini takomillashtirish maqsadida, axborotni to'plash, saqlash, tarqatish va taqdim etish uchun ularni birlashtirish usullari va dasturiy-texnik vositalarining majmui; boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishni rivojlantirish va uning ahamiyatga molik jihatlari va muammolari bo'yicha mamlakatimizda B.S.Abdullayeva, U.Sh.Begimqulov, MDH davlatlari miqyosida V.P.Bespalko, I.V.Robert va boshq., xorijiy davlatlar miqyosida esa B.Blum, D.Bruner va boshq. ilmiy izlanishlar olib borishgan.

B.S.Abdullayevaning ta'kidlashicha boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fani bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatiga tegishli bo'lgan asosiy tushunchalar, ularning tarkibi va o'ziga xos xususiyatlarini ... fanni o'qitishda modulli, muammoli ta'lim, yangi axborot texnologiyalari vosilalaridan, multimediya texnologiyalaridan foydalanishni ko'zda tutadi.

U.Sh.Begimqulov ta'lim tizimida axborot-ta'lim muhitini tashkil etish, o'quv-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini jadallashtirish, bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish negizida ta'lim jarayonlarining sifat va samaradorligi oshayotganligini ta'kidlab, talabalarning kognitiv faoliyatining intensivlashuvi, fanlararo aloqadorlikning chuqurlashuvi kuzatilayotganligini ta'kidlaydi.


Tadqiqotchi tomonidan mualliflarning ilmiy yondashuvlarini chuqur o'rganish va tahlil qilish asosida axborot texnologiyalari vosita va usullarining muhim jihatlari klassifikatsiyasi ishlab chiqildi (1-rasm).



**1-rasm. Axborot texnologiyalarining vosita va usullari**

Raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning nazariy asoslarining tahlillari, o'quv jarayonlarini samarali tashkil etishni belgilab beruvchi quyidagi asosiy tushuncha va tamoyillarni aniqlash imkonini berdi: raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning maqsad va vazifalarini qayta ko'rib chiqish. Bunda nafaqat kompyuter bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, balki talabalarning raqamli savodxonligi, axborot madaniyati va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ularni axborot hamjamiyatida hayotga, qolaversa mehnat faoliyatiga tayyorlash; raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishda didaktikaning ko'rgazmalilik, ochiqlik, tizimlilik va izchillik kabi tamoyillari alohida ahamiyat kasb etadi. Interfaol resurslar, multimedia va o'yinli texnologiyalardan foydalanish esa talabalarning kognitiv qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'limning jozibadorligini ta'minlaydi; boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishga qaratilgan nazariy yondashuvlar, konstruktivizm va faoliyat yondashuvi kabi zamonaviy konsepsiyalarni hisobga olish. Talabalar ta'lim jarayonlarining faol ishtirokchilari bo'lishligi, mustaqil ravishda o'z bilimlarini rivojlantirishlari va raqamli vositalardan foydalangan holda muammoli vaziyatlarni hal qilishlarini tarbiyalaydi; boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning uslubiy asoslari mashg'ulotning maqsad va vazifalariga, shuningdek, talabalarning tayyorgarlik darajasiga mos keladigan ta'limning maqbul shakllari, usullari va vositalarini tanlashni o'z ichiga oladi. An'anaviy o'qitish usullarini zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda uyg'unlashtirish, muvozanatli va samarali ta'lim muhitini yaratish imkonini beradi.

Dasturiy ta'minot boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning mazmuni, qolaversa uning ajralmas qismidir. boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining dasturiy ta'minotini o'rganish va tahlil qilish, dasturiy ta'minotning hozirgi axborot texnologiyalarining riqojlanganlik holatiga mosligi, ularni takomillashtirish yo'llari, mezonlari aniqlandi va atroflicha o'rganildi (2-rasm).



**2-rasm. Dasturiy ta'minot mezonlari**

M.E.Mamarajabov ta'lim uchun zarur dasturiy ta'minotni loyihalash – bu to'g'ri yechimlarni izlashning talabchan va qimmat jarayoni bo'lib, uning bir qismi keyingi g'oyalar samaradorligini tekshirishdir deb ta'kidlaydi. Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining dasturiy ta'minoti axborot, hisoblash, avtomatlashtirish,

ma'lumotlarni qayta ishlash va raqamli mahsulotlarni yaratish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan dasturlar, vositalar va tizimlarning keng toifasi.

Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining dasturiy ta'minotini takomillashtirish, alohida qaralgan dasturiy ta'minot va undan foydalanish maqsadlariga, qolaversa maqsadli auditoriya va o'rganilayotgan dolzarb muammoning xarakteriga bog'liq. Shuning uchun, ko'plab dasturiy ta'minotda qo'llaniladigan umumiy yondashuvlarni mavjud dasturiy ta'minotlarning funktsionalligini yaxshilash, yangi dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqishni yo'lga qo'yish, dasturiy mahsulotlarni boshqa xizmatlar yoki ilovalar bilan integratsiyalash, yangi texnologiyalar bilan qo'llab-quvvatlashni yo'lga qo'yish, dasturiy mahsulotning ochiqqligini ta'minlash orqali shakllantirish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining dasturiy ta'minotini yaratish imkoniyatlari, dasturiy ta'minotni joriy etish modeli, fanning takomillashgan dasturiy ta'minotini joriy etish metodikasi yoritildi.

Raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining zamonaviy dasturiy ta'minotini zamon talablari asosida loyihalash ta'lim samaradorligi va ta'limning interaktivligini oshirishga xizmat qiladi va talabalarda XXI asrning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqotchi tomonidan boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning bugungi holati va ushbu fanni o'qitishdagi mavjud dasturiy ta'minot tahlillari va aniqlangan muammolar asosida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining dasturiy ta'minotini loyihalash, ulardan foydalanish maqsadlari, misollar va texnologiyalar taklif qilindi: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zamonaviy multimedia imkoniyatlari; virtual laboratoriyalar va simulyatorlar; ta'limiy o'yinlar (gamifikatsiya); interaktiv darslik va o'quv qo'llanmalar; ijodkorlik qobiliyatni rivojlantiruvchi vositalar; hamkorlikda ishlash va kommunikatsiya vositalari; sun'iy intellekt va mashinani o'qitish; office ilovalari; dasturlash va web-dasturlash; ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqalar.

Tadqiqotchi tomonidan ushbu dasturiy mahsulotlarni alohida-alohida yaratish va ularni yagona adaptiv tizimga birlashtirish orqali foydalanish imkoniyati yaratildi. Yaratilgan ushbu dasturiy mahsulotlar boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining dasturiy ta'minotini takomillashtirishga xizmat qiladi hamda ulardan markazlashtirilgan adaptiv tizim (platforma negizida) sifatida foydalanishga imkon beradi.

Dasturiy ta'minotlar va ularga qo'yiladigan talablar, boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishdagi o'rni va ahamiyati, dasturiy ta'minotga o'zgartirishlar kiritish bilan uning asosiy funksionaligini saqlagan holda amalga oshiradi. Dasturiy ta'minotning muhimligi, uni yaratilishidan toki undan foydalanishni yakunlashgacha bo'lgan uzluksiz jarayonni tashkil eadi.


Raqamli ta'lim platformalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining produktiv faoliyatlarini olib borish uchun zarur bo'ladigan resurslar va turli uskunaviy vositalardan keng foydalanishni ko'zda tutadi. Tadqiqot ishini amalga oshirish

jarayonida raqamli texnologiyalar asosida ta'lim muhitini shakllantirish, xususan adaptiv tizimli ta'limiy platformalarni yaratish bo'yicha respublika, MDH va xorijiy davlatlar amaliyotidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining qiyosiy tahlili o'tkazildi, shuningdek, UNESO, EQAR, BRIKS, EASE xalqaro tashkilotlarning raqamli ta'limni joriy etish strategiyalari atroflicha o'rganildi.

Raqamli platforma – bu ta'lim tizimidagi barcha manfaatdor tomonlarni (talaba, pedagog, ma'murlar, qolaversa, ota-onalar) birlashtiradigan va ularga ta'limni tashkil etish, boshqarish va amalga oshirish uchun turli ta'lim resurslari, vositalari va xizmatlaridan foydalanishni ta'minlaydigan keng qamrovli, integratsiyalashgan onlayn ta'lim muhiti.

Raqamli platforma bu shunchaki web-sayt yoki onlayn kurslar to'plami emas, balki o'ziga xos murakkab tizim hisoblanib u o'quv kontentlaridan markazlashgan holda foydalanish (darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar, videodarslar, taqdimot, topshiriqlar va raqamli formatdagi boshqa resurslar), o'quv jarayonini tashkil etish vositalari (dars jadvali, kalendar, topshiriqlar va ularni boshqarish tizimlari, onlayn darslar va vebinarlarni o'tkazish vositalari), kommunikatsiya va hamkorlik vositalari (forum, chat, videokonferentsiya, loyihalar ustida hamkorlikda ishlash vositalari), baholash va teskari aloqa tizimlari (testlar, so'rovnomalar, bilimlarni avtomatik tekshirish vositalari, baholash tizimlari), ta'lim jarayonini boshqarish vositalari (davomatni aniqlash tizimlari, hisobot va tahlillarni tayyorlash vositalari) va boshqalarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Ta'limni takomillashtirish to'g'risida Respublikamizda qabul qilingan qator qaror va qonunlar, raqamli platformalarni yaratishning mahalliy va xorijiy tajribalari hamda LMS, moodle, Coursera, Google classroom va boshqa raqamli platforma modellari tuzilishi va imkoniyatlarini o'rganish asosida, foydalanish jihatidan eng sodda, imkoniyati jihatdan yuqori bo'lgan Google classroom Internet maydonchasi negizida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishga qaratilgan raqamli ta'lim platforma ishlab chiqildi (3-rasm).



**3-rasm. Raqamli platformaning axborot modeli**

Raqamli platformani mazmuniy jihatdan to'ldirish maqsadida quyidagi o'quv kontentlar banki ishlab chiqildi: nazariy, amaliy va mustaqil ta'lim kontentlarini o'z ichiga olgan 90 ta uslubiy ishlanmalar; taqdimot va video-kontentlar banki; audiokontent (podkast); boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fani bo'yicha turli mazmundagi topshiriqlar; fanlararo va metadissiplinar xarakterga ega bo'lgan va amaliyotga yo'naltirilgan 100 ta keys-topshiriqlari; 20 ta innovatsion loyiha ishlari hamda ularni amalga oshirish rejasi; o'yinli ishlanmalar (geymifikatsiya elementlari) 15 ta; fanga kirish va oraliq hamda yakuniy (chiqish) test sinovlari uchun test topshiriqlari banki. Ushbu kontentlar boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining mazmunini takomillashtirish bilan bir qatorda, ta'limning sifat va samaradorligi va jozibadorligi oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli platformaning ta'limiy funksiyalari, ulardan foydalangan holda hal qilinadigan vazifalardan kelib chiqishi lozim. Shundagina, raqamli platforma orqali ta'lim maqsadlaridagi axborot va mediaresurslarga onlayn yoki oflayn kirish, shuningdek, monitoring va qayta aloqa vositalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonlarini tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Yaratilgan raqamli platformaning ochiqligi va universalligi shundan iboratki, unda talabalardan tashqari pedagoglar uchun ham yangi mazmundagi topshiriqlarni ishlab chiqish, platformaga joylantirish va ekspert sifatida ish olib borish imkoniyatlari yaratilgan.


Ilmiy tadqiqot ishi doirasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini raqamli platformada boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining takomillashtirilgan dasturiy ta'minoti asosida o'qitish metodikasining tuzilmaviy modeli ishlab chiqildi. Ushbu model maqsadli, mazmunli, tashkiliy va natijaviy bloklarni o'z ichiga oladi (4-rasm).

Raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining takomillashtirilgan dasturiy ta'minotini joriy etish metodikasi – bu ushbu fanni o'qitish samaradorligini oshirish va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli bilimlarini rivojlantirish maqsadida yangi yoki yangilangan dasturiy ta'minotni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga integratsiyalash jarayonini tashkil etish va o'tkazishga qaratilgan tizimli va ilmiy asoslangan yondashuv.

